

**INKLYUZIV TA'LIM JARAYONI ISHTIROKCHILARI, OTA-ONALAR,
KENG JAMOATCHILIK VA AHOLI O'RTASIDA TARG'IBOT
ISHLARINI OLIB BORISH, ULARGA NISBATAN BAG'RIKENGLIK
MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH.**

Rizayeva Yulduz Mamir qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Inklyuziv ta'limni rivojlanishida bag'rikenglik, insonparvarlik tushunchalarini jamiyatimiz o'rtasida keng shakllantirish, inklyuziv ta'limda ta'lim olishga chiqayotgan va endi jalb qilinadigan bolalarni tenghuquqlilik asosida umumta'lim muassasalariga qamrovi.

Абстрактный: Широкое формирование понятий толерантности и гуманности в развитии инклюзивного образования в нашем обществе, охват детей, которые собираются учиться в инклюзивном образовании и сейчас обучаются в общеобразовательных учреждениях на равноправных началах.

Abstract: Broad formation of the concepts of tolerance and humanity in the development of inclusive education in our society, coverage of children who are going to study in inclusive education and are now involved in general education institutions on the basis of equal rights.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, bag'rikenglik, insonparvarlik, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar, kamchilik, qoloq,

So'nggi paytlarda “bag'rikenglik” tushunchasidan ko'p foydalanilmoqda. Bu so'z inson hayotining turli jabhalariga tegishli. Bu o'ziga bo'lgan munosabatni, odamlar bilan muloqotni, tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatni tavsiflaydi. Biz o'qituvchilarmiz, demak, biz nafaqat o'zimiz, balki bolalar uchun ham javobgarmiz. Yosh avlodda mehr-oqibat, mehr-muhabbat, sabr-toqat tuyg'ularini tarbiyalash, har bir so'zni ma'nosiga e'tibor berish, har bir harakatimizni o'ylash biz, kattalar uchun juda

Bag'rikenglik - bu bizning dunyodagi madaniyatlarining boy xilma-xilligini, o'zini namoyon qilish shakllarini va inson individualligini namoyon qilish usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishdir. Bag'rikenglik boshqalarni tushunish va muloqot qilish, uning boshqacha bo'lish huquqini tan olish va hurmat qilishni anglatadi.

Bir-biriga nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish juda muhim va o'ziga yarasha murakkabdir, agarda sizning yoningizda psixofiziologik rivojlanish xususiyatlariga sizdan farq qiladigan inson bo'lsa.

Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning asosiy muammosi uning atrofdagilar bilan aloqasini cheklash, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlarning kamligidir.

Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalarning ta’lim sifatini yaxshilashga to’sqinlik qiladigan jismoniy va ruhiy to’siqlarning mavjudligi, ularga tengdoshlari tomonidan nisbatan salbiy munosabatdir. O’qituvchilarning o’zlari ba’zan bunday bolalarga nisbatan murosasiz munosabatda bo’lib, ularni “kamchilikli”, “nuqsonli”, “qoloq” deb atashlari muammolarni yanada kuchaytiradi.

Shu munosabat bilan pedagogik bag’rikenglik haqida eslash kerak, ya’ni bolani o’zi kabi tushunish va qabul qilish qobiliyati.

Alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalarning sog’lom bolalar bilan birgalikda o’qitish jarayonida ijobiy munosabatlar bu nafaqat o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida, balki barcha o’quvchilarning darsda va darsdan tashqarida ham o’zaro munosabatlarida ham juda zarurdir. Impulsivlik, ziddiyatdiylik, norozilik va asabiylashish nogiron bolalarga xosdir. Bu o’qituvchidan bolalarning umumiy qo’zg’aluvchanligini kamaytirish va emotsional madaniyatini shakllantirish uchun alohida harakatlarni talab qiladi. Sizga shuni eslatib o’tmoqchimanki, ziddiyatli vaziyatlar, sovuq munosabatlar loqaydlik va takabburlik, ularni keyinroq tuzatishdan ko’ra, namoyon bo’lishining oldini olish osonroqdir.

Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan, alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalarning sog’lom rivojlanayotgan tengdoshlar bilan birgalikda ta’lim olishlar bizga quyidagi vazifalarni hal qilishga imkon beradi:

1. Alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalar muayyan xulq-atvor normalarini o’zlashtiradi, bu esa kelajakda (keyingi psixologik, pedagogik va jismoniy reabilitatsiya sharti bilan) unga jamiyatning teng huquqli a’zosi bo’lishga imkon beradi. Boshqa tomondan, sog’lom rivojlanayotgan tengdoshlari alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalarning muammolariga munosib javob berishni o’rganadilar.

2. Boshqa bolalar bilan muloqot qilishda bunday bolaning diqqati, xotirasi, tasavvuri, fikrlash va nutqi rivojlanadi.

3. Inklyuziv sinflarda **qayta aloqa** mavjuddir, bola o’z o’rtoqlari tomonidan qanday baholanishi haqida ma’lumot oladi. Bu uning o’zini to’g’ri idrok etish va baholashni o’rganishi uchun muhimdir. Siflarda to’g’ri o’zini o’zi qadrlash shakllana boshlaydi, bu esa ijtimoiy tajribani o’zlashtirish jarayoniga ta’sir qiladi.

4. Inklyuziv sinflarda bola atrofdagi odamlardan aynan kelajakda barcha faoliyatda o’z-o’zini anglashni rivojlantirish va muvaffaqiyatini rag’batlantirish uchun zarur bo’lgan yordam oladi.

5. Bunday sinflarda bola muayyan ijtimoiy rollarni va ularga mos keladigan xulq-atvor shakllarini o’rganadi, buning natijasida u o’z harakatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, turli vazifalarni o’z zimmasiga olish va ularni bajarish qobiliyatiga ega bo’ladi.

Alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalarga nisbatan tengdoshlarning bag’rikenglik munosabatini shakllantirish.

Zamonaviy ta’limda inklyuziya nafaqat alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalar uchun, balki sog’lom bolalar uchun ham eng rivojlangan, insonparvar va samarali ta’lim tizimi sifatida tan olingan. Bugungi kunda ta’lim jarayonining ayrim ishtirokchilari alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalarni qabul qilishga tayyor emaslar. Bunday tayyorgarliktsizlik nafaqat moddiy-texnika tomondan, balki psixologik, tarbiyaviy va axloqiy asosga egadir.

Bugungi kunda o’qituvchilar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglarni - seminarlar, o’quuv darslari, metodik birlashmalar, ko’plab qo’llanmalar, jahon hamjamiyatlari tomonidan tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalar va ularning ota-onalari bilan tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda, lekin sog’lom bolalar, ularning ota-onalari va keng jamoat esa bu tayyorgarlik jarayoniga to’liq jalb qilinmaganligi sababli bir qator muammolar va qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan asosiy vazifalardan biri kelib chiqadi – jamiyatda, birinchi navbatda, yosh avlodda jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalarga, tengdoshlariga nisbatan bag’rikenglik munosabatini shakllantirishdir.

Maktabda, umuman jamiyatda bo’lgani kabi, bir qator muammolar mavjud, jumladan:

- alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalar haqida va ular duch keladigan qiyinchiliklar haqida yetarlicha ma’lumotga ega emaslik;
- o’quvchilarda alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalar bilan muloqot qilish ko’nikmalarining yo’qligi;
- maktab o’quv dasturida bolalarga alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan tengdoshlarini tushunishga va ular bilan qanday muloqot qilishni o’rganishga yordam beradigan darslarning yo’qligi;
- ushbu sohada uslubiy ishlanmalarning kamligi.

Alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalarga nisbatan bag’rikenglik munosabatini shakllantirish uchun o’qituvchining o’zi bag’rikenglikni namoyon qilishga tayyor bo’lishi kerak. Bag’rikenglik nafaqat mehr-oqibat, sabrliylilik, balki inson huquqlarini hurmat qilishdir. Bu insonning tashqi ko’rinishi, mavqei, nutqi, xulq-atvori va qadriyatlari bilan tabiatan farq qilishi va dunyoda yashash va o’ziga xosligini saqlab qolish huquqiga ega ekanligini tan olishdir.

O’quvchilar o’rtasida shaxsiy sifat sifatida bag’rikenglikni tarbiyalash ta’lim muassasasida alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolaning rivojlanishi uchun **ijtimoiy, psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish** orqali amalga oshirilishi mumkin:

- alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalarni ta’lim jarayoniga jalb etish;

- alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarda o‘zini jamiyatda ishonchli mavqega ega bo‘lish, o‘z kamchiliklarini ezgulikka aylantira olish uchun faol xulq-atvor munosabatini shakllantirish;

- sog‘lom bolalarning ota-onalari alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nisbatan munosabatini o‘zgartirish.

Inklyuziya sharoitida ota-onalarda, odatda rivojlanayotgan tengdoshlarida alohida bolaga nisbatan adekvat munosabatni shakllantirish kerak: unga ma’lum bir salohiyatga ega shaxs sifatida qarash, uni barcha xususiyatlari bilan qabul qilish zarurdir.

Sog‘lom bolalarga bunday bolalarning bizdan tashqi va ichki jihatdan farq qilishini tushunishga yordam beradigan suhbat, o‘yinlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bola nima uchun boshqacha ekanligini tushunmaydi. U o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlari tufayli o‘sadi va rivojlanadi. U kattalar va bolalardan yordam kutadi, shunda biz unga qanday o‘ynashni va muloqot qilishni o‘rgatishimiz kerak.

Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolaning tashqi ko‘rinishidagi pokizalik, uning tozaligi va ozodaligi sog‘lom rivojlanayotgan bolalarda hamdardlik, u bilan muloqot qilish istagini uyg‘otadi, shuning uchun o‘qituvchiga bunday bolada ozoda bo‘lish, toza kiyim kiyish va ularning tashqi ko‘rinishini nazorat qilishlari uchun mashq qilishga o‘rgatish tavsiya etiladi. Bu talablarga o‘qituvchining tizimli nazoratga olishi va maktabning, hamda oiladagi yagona talablar tizimida erishiladi.

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar kattalar va bolalarning ijobiy munosabatiga muhtoj, shuning uchun o‘qituvchi ularga ko‘proq e’tiborli, samimiy va mehribon bo‘lishi kerak.

Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi o‘qiyotgan sinfdagi sinf rahbarining vazifalarni quyidagicha belgilash mumkin:

- har bir o‘quvchining, shu jumladan alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolaning muvaffaqiyati uchun bilim olish va aqliy faoliyatda eng qulay tashkiliy sharoitlarni yaratish;

- rivojlanishning ko‘p qirraliligini kafolatlaydigan maktab jamoasining turli sinfdan tashqari tadbirlarida barcha bolalarning ishtirokini ta’minlash;

- alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolaning muvaffaqiyati uchun sharoit yaratish;

- alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolaning to‘laqonli rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish uchun uning oilasi bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish.

- pedagogik kuzatish, bolalarni tarbiyalanganlik darajasini diagnostikasini o‘tkazish va alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolani sinfdoshlari tomonidan empatik qabul qilish, har bir o‘quvchining bag‘rikenglik munosabatini mos ravishda pedagogik korreksiyalash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun o‘quvchilar tomonidan jamiyatda ma’qullangan va ma’qullanmagan xatti-harakatlar shakllari to‘g‘risida ijtimoiy bilimlarni egallashga ko‘maklashish, atrofdagi odamlarga nisbatan mehr-oqibat tuyg‘usini shakllantirish; alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga do‘stona munosabatni tarbiyalash.

Boshlang‘ich sinflarda (1-4 sinflar) kichik yoshdagi o‘quvchilarning yoshi, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Bu yoshda bolaning bilish qiziqishlari va shaxsiyatining rivojlanishi sodir bo‘ladi, bolaning yaqinlari bilan yaqin munosabati saqlanib qoladi. Shuning uchun sinfdan tashqari tadbirlar tashkil qilishda tizimli-faollik yondashuvi orqali amalga oshirilishi kerak. Bola bu davrda o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishni, boshqa odamning fikrini bag‘rikenglik bilan qabul qilishni, jamoada ishlashni, yetakchi bo‘lishni o‘rganadi.

Bu yoshda dunyoga va atrofdagilarga emotsional-hissiy munosabat ustunlik qiladi. So‘zlar orqali, obrazlar orqali (sahna, ertaklarda), rasmlar, o‘yinlar (topshiriqlar, topishmoqlar) orqali bola ongida muhim qadriyat yo‘nalishlari shakllanadi va mustahkamlanadi. Bunday holatlarni hisobga olgan holda, o‘qituvchi uchun darsdan tashqari mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish jarayonida o‘quvchining emotsional tajribasi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish muhimdir.

Ushbu yo‘nalishdagi tarbiyaviy ishlarining asosiy shakllari quyidagilardir:

- o‘rgatuvchi axloqiy suhbatlar, hikoyalar, mavzuli bahslar;
- insholar, bayonlar;
- rasm va she‘r tanlovlari;
- ijtimoiy aksiyalar, konsertlar, bayramlar va boshqalar.

Bunday bolalar uchun sinfda ijobiy emotsional farovonlikni, boshqa bolalar bilan turli xil aloqalarni ta‘minlash zarurdir.

Buning uchun o‘qituvchiga quyidagi uslub va usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Sog‘lom bolalarga alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolaning kuchli va ijobiy fazilatlarini ko‘rsatish. Darsda va darsdan tashqari berilayotgan vazifalarni bajarayotganida ularning jismoniy kuchliyilgini va chidamlilililgini, mehnatsevarligi, harakatchanligini o‘qituvchi ko‘rsatib bera olishi kerak. **Misol uchun**, Daun sindromi bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarining tartibliyligii, intizomi va xayrixohligi bilan ajralib turadi.

2. O‘qituvchining muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishi, ushbu toifadagi bolalarni mustaqillikka undashi. O‘qituvchi bolaning kichik muvaffaqiyatlari va yutuqlarini nishonlashi va ijobiy baholashi kerak. **Misol uchun**, o‘qituvchi mehnat darsida Sanjar qanday go‘zal otkritka yasay olganini ko‘rsatib, uning harakat qilganini va ishni tez, aniq bajarganini bolalarga aytib ko‘rsatishi.

3. Bunday insonlarning mustaqil hayotidagi kasbiy faoliyati va yutuqlarini ko‘rsatish, bunday insonlar ijodkor, ijodiy yondashuvchi kasb egalari bo‘ladiilar. **Misol uchun**, naqqosh, duradgor, chilangar, tikuvchilik kasblarini egallaydilar. Bunday insonlar kelajakda ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va boshqa odamlar bilan muloqot qilishga harakat qiladilar.

4. Bunday kattalarning yutuqlariga hayotdan misollar keltirish orqali. Bolalarga filmlar va teleko‘rsatuvlarda bosh va epizodik rollarni o‘ynaganligi uchun turli mukofotlar va sovrinlarlar bilan taqdirlangan Daun sindromli amerikalik aktyor Kris Burkning tarjimai holini aytib berish tavsiya etiladi. Nyu-Yorkda uning nomi bilan atalgan maktab ham bor. Kris Burk musiqa dasturlarida faol ishtirok etadi, musiqiy albomlar chiqaradi, maktablarda va konferensiyalarda nutq so‘zlaydi. Bizning ham ajdodlarimiz ichida juda ko‘p shunday iste’dodli insonlarni uchratiish mumkin. Bunga o‘z tajribamdan misol qilib, farg‘onalik Quadratoy Teshaboevani misol qilib keltirishim mumkin. Bu ayol tug‘ma bir qo‘l bilan tug‘ilganlar va u davrlarda inklyuziv ta‘lim bo‘lmasa ham o‘zlari umumta‘lim maktabida a‘lochi o‘quvchi bo‘lib bitirib, oila qurganlar 5 nafar o‘g‘il farzandlari bor, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topgan inson. Mohir tikuvchi, oshpaz, sopol idishlarga naqsh chizadigan usta bo‘lganlar. Xozirda ham o‘z sexlari mavjud, qo‘l ostlarida atrofdagi ayollarni ish bilan ta‘minlamoqdalar, 150 dan ziyod tikuvchi shogirdlari mavjud. To‘g‘ri ayrim insonlarning ularni atrofdagilarning borlaricha qabul qilmasligi hayotda bir qancha qiyinchiliklarga sabab bo‘lgan. Lekin bu ayolning xarakterining metiinligi, kurashuvchanligi bularning hammasini yengib o‘tishiga sabab bo‘lgan va prezidentimizning “Jasorat” medaliga sazovor bo‘lganlar.

5. Sog‘lom tengdoshlaridan alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga yordam berishni tarbiyalash (ish joyini tartibli saqlash, jamoat topshiriqlarini bajarish).

6. Alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nisbatan munosabat tizimini shakllantiradigan maxsus ommabop adabiyotlarni o‘qishga undash.

Alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish.

1. Onalar kuni uchun bayram
2. “Xalqaro nogironlar kuni” darsdan tashqari tadbir
3. Turli spektakllarga birgalikda tashrif buyurish
4. Dars soatlarida qulay muhit yaratish (bayramlar oldidan birgalikda choy ichish, bolalarning tug‘ilgan kunlarini nishonlash).
5. “Biz boshqachamiz, lekin birgamiz” treningi.
6. “Bag‘rikenglik va zamonaviy jamiyat” mavzusida ota-onalar bilan suhbat
7. Ota-onalar uchun test "Siz farzandingizni tushunasizmi?"

Quyidagi trening mashqlari quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

- o‘zining va boshqalarning o‘ziga xosligini anglash;

- boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini, emotsiyalarini, harakatlarini, munosabatlarini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;
- emotsional aloqa o‘rnatish va muntazam muloqot qilish orqali hamdardlik qobiliyatini o‘zlashtirish.

Bundan tashqari psixolog o‘qituvchilar va ota-onalar bilan ham ishlaydi.

- 1) o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ularning ota-onalariga individual maslahatlar berish;
- 2) “Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi” mavzusida bunday bolalarning ota-onalari bilan trening o‘tkazish;
- 3) ota-onalar yig‘ilishlarida ma’ruzalar bilan ishtirok etish;
- 4) sinf rahbarlari uchun seminarlar (“Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlar”, “Tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari”, alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning sinf rahbarlari uchun eslatmalarni tayyorlash va boshqalar);
- 5) Tarbiya va ma’rifat soatlarida ishtirok etish.

Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar va sog‘lom bolalarning hamjixatlikdagi muloqotining afzalliklari quyidagicha:

Ijtimoiy tomondan:

- yordam berish orqali mustaqillikni rivojlantirish;
- muloqot va axloqiy tajribani boyitish;
- bag‘rikenglik, sabr-toqat, hamdardlik va insonparvarlik ko‘rsatish qobiliyatini shakllantirish;

Psixologik tomondan:

- ustunlik hissi yoki o‘zidan qoniqmaslik kamchiiliklarini rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

Tibbiy tomondan:

- xulq-atvor normasi sifatida "sog‘lom" xulq-atvor turiga taqlid qilish;
- kasallikni kuchaytiradigan va "imkoniyatlariniing cheklanganligi" ning rivojlanishiga olib keladigan ijtimoiy izolyatsiyani istisno qilish;

Pedagogik tomondan:

- har bir bolaning rivojlanishini o‘ziga xos jarayon sifatida ko‘rib chiqish (bolalarni bir-biri bilan solishtirishdan bosh tortish);
- muloqot va taqlid orqali aqliy rivojlanishni faollashtirish.

Sog‘lom bolalar uchun tavsiyalar:

- Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolaning tashqi va ichki jihatdan bizdan farq qilishini anglash kerak.

- Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bola nima uchun boshqacha ekanini tushunmaydi.

- U o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlari tufayli o‘sadi va rivojlanadi.

- Biz unga qanday o‘ynashni va muloqot qilishni o‘rgatishimiz uchun u kattalar va bolalardan yordam kutadi.

Sog‘lom rivojlanayotgan bolalarning ota-onalari uchun tavsiyalar:

- Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolaga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish.

- Unga ma’lum salohiyatga ega shaxs sifatida qarang.

- Uni qanday bo‘lsa, barcha xususiyatlari bilan qabul qiling.

Inklyuziv ta’limga o‘tishning hozirgi bosqichida alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish ta’limning eng muhim vazifasidir. Har bir bola baxtli bo‘lishni xohlaydi, shu jumladan alohida ehtiyojli bola ham. Va birinchi navbatda, u o‘zi yashayotgan va o‘sib-ulg‘aygan psixologik muhitdan, atrofdagi odamlarning e’tibor va g‘amxo‘rligi bilan himoyalanganidan xursand bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Психолого-педагогические основы инклюзивного образования: коллективная монография / Отв. ред. С. В. Алехина. М.: МГППУ, ООО «Буки Веди», 2013. 334 с.

2. Roy Mark Konki “Inklyuziv sinflarda o‘quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish” o‘qituvchilar uchun qo‘llanma YuNESKO fan va madaniyat tashkiloti. Toshkent 2002 yil. 44-45, 50-51, 57-58 betlar.

3. Ture Yonson “Inklyuziv ta’lim”-“Opereyshen Mersiy” Toshkent-2003 yil. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma.

4. SHomaxmudova R. —CHASHMA PRINT|| Maxsus va inklyuziv ta’lim.